

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

BOBOXONOV QUVONCHBEK SHAVKAT O‘G‘LI

**O‘RTA OSIYO QISHLOQLARI TARIXI (IV MINGYILLIKLAR –
MILODDAN AVVALGI V ASR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Boboxonov Quvonchbek Shavkat o‘g‘li

O‘rta Osiyo qishloqlari tarixi (IV mingyilliklar – miloddan avvalgi V asr).....3

Бобохонов Кувончбек Шавкат угли

Истории сельских поселений Средней Азии (IV тыс – V век до н.э.).....25

Bobokhonov Kuvonchbek Shavkat ogli

History of rural settlements in Central Asian (IV millennium – V century BC).....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

BOBOXONOV QUVONCHBEK SHAVKAT O‘G‘LI

**O‘RTA OSIYO QISHLOQLARI TARIXI (IV MINGYILLIKLAR –
MILODDAN AVVALGI V ASR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Tar1179 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sobirov Qurbonboy,
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich,
tarix fanlari doktori, professor

Abdirimov Razzoqberdi,
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "26" sentabr soat 14 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz


Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (845 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "17" sentabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "17" sentabr dagi 13 raqamli reestr bayonnomasi.)




M. K. Saribaev,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., dotsent


X. X. Matyakubov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, PhD., dotsent


U. I. Abdullayev,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d.
professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Qadimgi Sharq dunyosi tarkibiy qismi bo'lgan O'rta Osiyo mintaqasining sug'orma dehqonchilik va qishloqlari rivojlanishiga keng imkoniyatni hosil qilib, mavjud bo'lgan tabiiy resurslardan kundalik faoliyatlarida foydalangan insoniyatning hayot va ijod uyg'unligi natijalari moddiy va ma'naviy madaniyatda o'z aksini topgan. O'rta Osiyo – eng qadim zamonlardan boshlab ko'plab xalqlarning taqdirini birlashtirgan, murakkab etnik va tarixiy jarayonlarda kechgan geografik hudud sanaladi. Minglab yillar mobaynida O'rta Osiyo jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shib, butun dunyo e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Turon zaminida eng qadimgi davrdan boshlab ajdodlarimizning tabiiy-geografik muhitda, yaxlit hududlarda diniy bag'rikenglikda jamiyatni rivojlantirib, moddiy va ma'naviy madaniyatda ulug' zafarlarga erishganligi jahon madaniyati tarixida o'z o'rniga ega.

O'rta Osiyo mintaqasining asosi yaxlit, ammo uning yuzasi geografik xususiyati, tabiiy iqlim sharoiti, ekologiyasi, antropogen landshaft ta'sirida kechgan etnik munosabatlar jarayonlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tarixiy-geografik hududlarni namoyon qilgan. O'rta Osiyo mintaqasining Kopetdog' (Eron tog'ligining shimolidagi tog'lar, asosan, Eron, qisman Turkmaniston hududida joylashgan) etaklarida o'rtnashgan o'troq aholining paxsa va guvala bilimining tarixiy ildizi uzun bo'lib, Sharq dunyosining Kichik Osiyo janubi-sharqiy hududida istiqomat qilgan ilk ziroatchilar "O'zlashtiruvchi xo'jalikdan" (ovchilik, termachilik, baliqchilik) ziroatchilik va chorvachilikdan iborat "Ishlab chiqaruvchi xo'jalik" ka qadam tashlashi jahon tarixida muhim bosqich sifatida ajralib turadi.

Mil. avv. VIII-VII mingyilliklarda Kichik Osiyoda (Chatal Guyuk, Xadjilar), Falastin va Iordaniyada (Ierixon), Iroqda (Jarma) istiqomat qilgan aholi dehqonchilik va uy chorvachilik sohalarini kundalik faoliyatlarida belgilab olib, qo'shni hududlarga amaliy tajribalarini tarqatish vazifasini olib borgan¹. Manzilgohlardan olingan manbalarga ko'ra, o'troq turmush hayot, paxsa uy-joylar, oziq-ovqat mahsulotlari saqlangan xona va uylar o'rganilgan. O'rta Osiyoning issiq hududi bo'lgan Janubiy Turkmaniston Kopetdog'oldi etaklari, Murg'ob daryosi havzasi atroflari ziroatkor-chorvador aholining kelib joylashgan obyekti bo'lgan. Ular tomonidan olib borilgan ishlab chiqaruvchi xo'jalik tarix fanida "Joytun madaniyati" nomi bilan ma'lum². Joytun, Chopontepa, Chag'illitepa, Chaqmoqlidepa, Bami manzilgohlarining joylashishi tartibsiz kvadrat shaklda, uy-xonalar paxsa va guvalalardan qurilgan, aholisi "Qayr" dehqonchiligi hamda uy chorvachiligini olib borib, ishlab chiqaruvchi xo'jalikdan iborat bo'lgan. Xuddi shu Joytun manzilgohi urug' jamoalari turarjoylar qurilishida loy-paxsa bilimini qo'shni hududlarga tarqatishni boshlab yuborganlar.

¹ Мелларт Дж. Древнейшие цивилизации Ближнего Востока // Пер. с англ. Е.В. Антоновой. – М.: Наука, 1982. – С. 21; Ллойд С. Археология Месопотамии // Перевод с английского Я.В. Василькова и И.С. Клочкова. Ответственный редактор. В.И. Гуляев. – М.: Наука, 1984. – С. 26-39.

² Ершов С.А. Холм Чопан-Депе // Тр. института истории, археологии и этнографии АН Туркменской ССР. – Ашхабад, 1956. Т. 2. – С. 13-22.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 16-dekabrda "O'zbekistonning yangi tarixini yaratish to'g'risida"gi Qarori, shuningdek, Prezidentimizning 2018-yil 17-yanvardagi F-5181-son "Moddiy, madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishida qayd qilingan dolzarb vazifalarning hozirgi davr kun tartibiga qo'yilganligini qayd qilish joiz³. Tanlab olingan tadqiqot mavzusi yuqorida ko'rsatilgan murojaatnoma, qaror hamda farmoyishda qayd qilingan vazifalarning bajarilishiga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. XIX asr 80-yillari o'rtalarida Kaspiyorti viloyati boshlig'i A.V.Komarovning Ashxobod yaqinidagi Anov qishlog'idagi yodgorlikda Shimoliy Qoradengiz va Shimoliy Kavkaz yodgorliklaridan noyob ashyolarni olish maqsadida qazish ishlarini olib borishi natijasida bezakli idish-tovoqlar va tosh mehnat qurollari olinganligi to'g'risidagi ma'lumot Kaspiyorti qadimgi to'plamida qayd qilingan⁴. Afsuski, olingan kulolchilik ashyolari ilmiy tahlil qilinmagan. Shuning uchun ham ularning tarixiy sanasi jumboqligicha qolgan. Amerikalik geolog R.Pampelli Anov qishlog'ida qazishma ishlarining olib borilishi bilan olingan kulolchilik ashyolarining tahlili asosida ularning Anov-I-IV davrlariga ajratilganini qayd qilgan⁵. 1926-yilda D.D.Bukinich Kaaxka qishlog'idagi Namozgohtepa yodgorligi to'g'risida ma'lumot bergan⁶. 1928-yilda A.A.Semenov janubi-sharqiy Turkmanistondagi Namozgohdepe, Ulug'depa, Oltintepa yodgorliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilgan⁷. 1930-yilda arxeolog A.A.Marushenko Anov yodgorligi to'g'risida ma'lumot berib, Ashxobod yaqinidagi Oqtepani bronza davriga oid, degan xulosaga

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 30-августдаги ПҚ-4433-сон "Ёшларни илм-фан соҳасига жалб этиш ва уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори, <https://lex.uz/docs/4494504>; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996-йил 16-декабрдаги "Ўзбекистоннинг янги тарихини яратиш тўғрисида"ги 445-сонли Қарори, <https://biodock.netlify.app/kitoblar/vitaminsimon.pdf>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 17-январдаги Ф-5181-сон "Моддий, маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида" ги Фармойиши (электрон ресурс), <https://lex.uz/docs/3506332>.

⁴ Комаров А.В. Закаспийская область в археологическом отношении // Туркестанские ведомости. 1888. – № 3. – С. 24-26.

⁵ Pampelly R. Archeological and phisico-geographical reconnaissance in Turkestan. Carnegiem Institute ot Washington. Publication, – № 26, 1905. – P. 7-9; O'sha muallif. Explorations in Turkestan. Edited by R. Pampelly. Volume I-II. – Washington, 1908.

⁶ Букинич Д.Д. Новое об Анау и Намазгах-тепе // "Туркменоведение". – Ашхабад, 1929. – №5. – С. 32-36.

⁷ Хлопин И.Н. Геоксюрская группа поселений эпохи энеолита // Опыт исторического анализа. – М.: – Л.: Наука, 1964. – С. 4.

kelgan⁸. XX asrning 1938-1940-yillarida Xorazmda bronza davri hamda temir davriga mansub Ko‘zaliqir, Qal‘aliqir va Ding‘ilja aholi markazlari arxeologik jihatdan o‘rganildi⁹. XX asrning 70-yillari o‘rtalaridan Ko‘zaliqir, Kang‘kaqal’a, Quyisoy va Katta Oybo‘yirqa‘lalaridan temir davriga oid manbalar olingan¹⁰. XX asrning 50-yillaridan boshlab Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligidagi arxeologiya guruhi Zarafshon daryosi quyi havzasida bronza davriga mansub Zomonbobo madaniyatini o‘rgandi¹¹. M.Isomiddinovning Afrosiyob va Ko‘ktepada olib borgan qazishma ishlari natijasida temir davriga oid manbalar olingan¹². Janubiy Zarafshon hududida temir davriga oid yodgorliklar - Sangirtepa va Uzunqir yodgorlari arxeologik jihatdan o‘rganilgan¹³. Shimoliy Baqtriya hududidagi temir davriga oid Kuchuktepa, Talashgan, Xaitabad aholi markazlari arxeologik jihatdan o‘rganilgan¹⁴. Farg‘ona vodiysidagi Dalvarzintepadan temir davriga oid ashyolar olingan¹⁵.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi mazmunini aks ettirgan vazifalar O‘zbekiston tarixi sohasidagi mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishiga mos keladi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejalari mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi. O‘rta Osiyo qishloqlari (IV mingyilliklar – miloddan avvalgi V asr) tarixini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘rta Osiyo mintaqasi qishloq jamoalari turarjoylaridagi arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish;

O‘rta Osiyo qishloq jamoalari tarixshunosligini o‘rganish;

O‘rta Osiyo mintaqasining paleogeografik xususiyati va etnik jarayonlarning rivojlanish bosqichlarini aniqlash;

O‘rta Osiyo mintaqasida etnogenetik jarayonlar ta‘sirida madaniy-xo‘jalik mikrovohalarining vujudga kelishi va ularning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;

O‘rta Osiyo qishloqlarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarning rivojlanish bosqichlarini o‘rganish;

madaniy-xo‘jalik hududlarda qishloq jamoalari va turarjoylarning joylashish xususiyatlari hamda tipologiyasi masalalarini o‘rganish.

⁸ Марущенко А.А. Анау. Историческая справка // Архитектурные памятники Туркмении. – Ашхабад, 1939. – С. 101-103.

⁹ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 66-68; O‘sha muallif. По древним дельтам Окса и Яксарты. – М., 1962. – С. 9-101; Воробьева М.Г. Дингильджа. Усадьба середины I тысячелетия до.н.э в древнем Хорезме // МХЭ. – М.: Наука, 1973. Вып-9. – 220 с.

¹⁰ Вишневская О.А. Раскопки на городище Кюзалигыр // АО 1971. – М.: Наука, 1972. – С. 532-533.

¹¹ Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Ташкент, 1966.

¹² Исамиддинов М.Х., Рапен К. К стратиграфии городища Коктепа // ИМКУ. – Самарканд, 1999. Вып. 30. – С. 68-79.

¹³ Сагдуллаев. А.С. Қадимги Кеш – Шахрисабз тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 46-49.

¹⁴ Аскаров А., Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепа. – Ташкент: Фан, 1979. – С. 18-23.

¹⁵ Заднепровский Ю.А. Ошское поселение. К истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек, 1997. – С. 77-78.

Tadqiqot obyekti sifatida O'rta Osiyo qishloqlari tarixi mil. avv. IV mingyillikdan miloddan avvalgi V asrgacha tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti O'rta Osiyo qishloqlari tarixini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari Dissertatsiyada ilmiy asos, tarixiy-xronologik, nazariy-qiyosiy tahlil, bahs va munozara, umumlashtirish kabi usullardan, arxeologiya, etnografiya, antropologiya va geografiya fanlari yutuqlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Osiyo materigi yuzasi turli xil tog'lik va tekisliklardan iborat bo'lib, shundan O'rta Osiyo mintaqasi uning bir qismini tashkil etib, uning geografik sharoiti, tabiiy muhiti, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan aholining O'rta Osiyo mintaqasi hududlariga kelib joylashishi hamda bu hududning o'zlashtirilishi uchun qulay shart-sharoitlarning mavjudligi tamoyillari asoslab berildi;

O'rta Osiyo mintaqasining qadimgi tosh davridan mil. avv. V asrgacha bo'lgan davr oralig'ida tabiiy-iqtisodiy hududlarining paleogeografik holati, tabiiy sharoiti, ekologiyasi ta'sirida aholining joylashishi, kundalik turmushi, ya'ni o'zlashtiruvchi xo'jalikdan farqli ravishda ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tgandan so'ng erishgan yutuqlariga aniqliklar kiritildi;

O'rta Osiyo mintaqasining tog'lik hududlarida g'or-makonlar va ochiq tipdagi manzilgohlar zahiridan o'sib chiqqan aniq geografik hududda joylashgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning qo'shni hududlar sari migratsion siyosatini amalga oshirishi natijasida mikrovohalarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari arxeologik manbalar asosida dalillandi;

O'rta Osiyo ilk dehqonchilik madaniyati ijodkorlarining paxsa binokorlik bilimining Janubiy Turkmanistonning Kopetdog'oldi etagi hududidagi Joytun manzilgohidan O'rta Osiyoning markaziy va shimoliy hududlariga yoyilishi jarayoniga aniqliklar kiritildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'rta Osiyoning eneolit, bronza va temir davri tarixiga oid nashrlarda qayd qilingan ma'lumotlarni yaxlit tizimlashtirish, yangicha yondashuvlar va g'oyalar asosida o'troq aholining madaniy xo'jalik viloyatlarida hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan qishloq maqomidagi turarjoylar tarixini o'rganish natijalari yoritildi.

Shu bilan birga, O'rta Osiyoda dastlabki qishloq jamoalarining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi mavjud bo'lgan adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.

Dissertatsiya natijalarini tarix fani sohasidagi tadqiqotlarda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi hozirgi davr tarix fanida aprobat siyadan o'tgan usullar va e'tirof etilgan yondashuvlarning qo'llanilganligi, asl manbalar va ilmiy adabiyotlar ma'lumotlaridan foydalanilganligi va olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'rta Osiyo qishloqlari tarixi yoritilgan yozma va arxeologik ma'lumotlar tizimlashtirilib, yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida O'rta Osiyo madaniy-xo'jalik hududlari qishloqlarida ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy

munosabatlar bilan bog‘liq ma’lumotlar ilmiy muomalaga kiritilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyadagi tahliliy ma’lumot va xulosalardan oliy ta’lim tizimida tarix yo‘nalishini yanada rivojlantirish, O‘zbekiston tarixini o‘rganishda va yangi avlod o‘quv darsliklari va qo‘llanmalarni yaratishda, ularni yangi ma’lumotlar bilan boyitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning fanlararo xususiyatidan (arxeologiya, manbashunoslik, kartografiya, tarixiy geografiya va etnogeografiya) kelib chiqqan holda qadimgi davr etnik jarayonlar tarixi bo‘yicha nazariya va qarashlarni takomillashtirish imkoni mavjud.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘rta Osiyo mintaqasi tarixiy geografik hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari tarixi masalasini o‘rganishdan kelib chiqib, quyidagi taklif va xulosalar asosida:

Osiyo materigi yuzasi turli xil tog‘lik va tekisliklardan iborat bo‘lib, shundan O‘rta Osiyo mintaqasi uning bir qismini tashkil etib, uning geografik sharoiti, tabiiy muhiti, o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan aholining O‘rta Osiyo mintaqasi hududlariga kelib joylashishi hamda bu hududning o‘zlashtirilishi uchun qulay shart-sharoitlarning mavjudligi tamoyillari asoslab berilganligiga oid ilmiy yangiliklardan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021 – 2022-yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san’ati tarixi” nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Mudofaa vazirligining 2025-yilning 28-fevraldagi 10/494-son ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyaning ilmiy yangiliklari va xulosalari loyiha doirasida dastur, qo‘llanma va monografiya materiallarini tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

O‘rta Osiyo mintaqasining qadimgi tosh davridan mil. avv. V asrgacha bo‘lgan davr oralig‘ida tabiiy-iqtisodiy hududlarining paleogeografik holati, tabiiy sharoiti, ekologiyasi ta’sirida aholining joylashishi, kundalik turmushi, ya’ni o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan farqli ravishda ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tgandan so‘ng erishgan yutuqlariga aniqliklar kiritilganligiga oid ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021 – 2022-yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san’ati tarixi” nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Mudofaa vazirligining 2025-yilning 28-fevraldagi 10/494-son ma’lumotnomasi). Olingan natijalar teletomoshabinlarning O‘rta Osiyodagi dastlabki aholi turar joylari va qishloqlari tarixi bo‘yicha bilimlarini boyitishga xizmat qiladi;

O‘rta Osiyo mintaqasining tog‘lik hududlarida g‘or-makonlar va ochiq tipdagi manzilgohlar zahiridan o‘tib chiqqan aniq geografik hududda joylashgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning qo‘shni hududlar sari migratsion siyosatini amalga oshirishi natijasida mikrovohalarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari arxeologik manbalar asosida dalillanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Ko‘hna manzillar” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yilning 4-martdagi 01-30/123-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu ma’lumotlardan yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va O‘zbekiston tarixiga oid bilimlarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

O'rta Osiyo ilk dehqonchilik madaniyati ijodkorlarining paxsa binokorlik bilimining Janubiy Turkmanistonning Kopetdog'oldi etagi hududidagi Joytun manzilgohidan O'rta Osiyoning markaziy va shimoliy hududlariga yoyilishi jarayoniga aniqliklar kiritilishiga oid g'oyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Ko'hna manzillar" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2025-yilning 4-martdagi 01-30/123-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur tadqiqot ishi Respublikamiz hududida turizm sohasini rivojlantirish uchun asosiy qo'llanma va monografiyalar tayyorlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 8 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va shartli qisqartmalar ro'yxati hamda ilovadan iborat bo'lib, ishning tadqiqot qismi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'rta Osiyo qishloqlari tarixining manbalarda aks etishi va tarixshunosligi masalalari**" deb nomlangan. Uning "*O'rta Osiyo mintaqasi qishloq jamoalari turarjoylaridagi arxeologik tadqiqotlar natijalari*" sarlavhali birinchi paragrafida O'rta Osiyoning qishloq jamoalari manzilgohlari tarixining o'rganilishi masalalari yoritilgan.

O'rta Osiyo respublikalari hududlarida XX asr va XXI asr boshlaridagi adabiyotlarda o'troq aholi tomonidan qoldirilgan turarjoylarda keng qamrovli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari quyidagi tarixiy davrlarga ajratish imkoniyatini berdi:

1. XX asr boshlaridan XX asrning 30-yillari o'rtalarigacha;
2. XX asrning 30-yillari o'rtalaridan 40-yillari o'rtalarigacha;
3. XX asrning 40-yillari o'rtalaridan XX asrning 90-yillarigacha;
4. Mustaqillik yillari arxeologik tadqiqotlar natijalari.

Birinchi tarixiy davrda O'rta Osiyo mintaqasida eneolit davriga mansub aholi turarjoylarida qazishma ishlari XX asr boshlaridan boshlangan bo'lib, amerikalik geolog olim R.Pampelli va G.Shmidtning Ashxobod shahridan 12 km. sharqda joylashgan Anov yodgorligida qazishma ishlarini olib borishi natijasida olingan moddiy ashyolar Anov I-IV davrlariga ajratilgani holda ularning ikki tomlik monografiyasi nashr qilingan¹⁶.

XX asr boshlarida Janubiy Turkmanistonning Kopetdog'oldi etaklarida aholi turarjoylarida arxeologik qazishma ishlari boshlangan. Natijada, amerikalik geolog olim R.Pampelli Anov yodgorligida qazishma ishlarini olib borib, xilma-xil bezakli qurol ashyolarni o'rganadi va shu asosda G.Shmidt tomonidan bu yodgorlik ilmiy tahlil qilinib, uning qurilish tarixi to'rtta qurilish davrini qamrab olib, Anov I-IV arxeologik kompleksi ishlab chiqildi hamda uning tarixiy davrlari bosqichma-bosqich ilmiy jamoatchilikka havola qilgan edi¹⁷. Shu tariqa, O'rta Osiyo ibtidoiy jamiyati tarixining eneolit davri stratigrafiyasi ilk bor ilmiy jamoatchilikka e'lon qilinib, mazkur tarixiy davr XX asrning o'rtalarigacha qadimshunoslar uchun mazkur jamiyatda kechgan tarixiy jarayonlarni o'rganishda kalit vazifasini bajarib kelgan.

1926-yilda Janubiy Turkmaniston sug'orish inshooti muhandisi D.D.Bukinich Anov yodgorligiga e'tiborini qaratib, undagi arxeologik ashyolarni olish maqsadida Kaaxka hududida joylashgan katta hajmli Namozgohtepada qisman arxeologik qazishma ishlarini olib borib, arxeologik ashyolar, rang-barang rasimli idish-tovoqlarni olishga muvassar bo'lgan¹⁸.

XX asrning 30-yillari boshida V.Y.Masson rahbarligidagi Termiz arxeologiya kompleksi ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan Ayritom yodgorligida olib borilgan qazishma ishlari natijasida noyob ashyolar, ya'ni Ayritom frizlari va chang musiqa asbobini chalayotgan ayollar tasviri tushirilgan milodiy III asrga oid bo'lgan kulolchilik ashyolarining topilishi muhim ahamiyat kasb etgan.

1907-yilda A.I.Terenojkin tomonidan Amudaryo o'ng sohili hududida olib borilgan arxeologik qidiruv natijasida Kaltaminor, Tozabog'yop va Amirobod sug'orilish sohili hududlarida o'troq ziroatkor aholi tomonidan bino qilingan Burli, Ayozqal'a 1, 2, 3, Pilqal'a, Burgutqal'a yodgorliklari arxeologik xaritaga joylashtirilgan, lekin Teshikqal'ada qisman olib borilgan arxeologik ishlar natijasida bu hududning ilk o'rta asrlarga mansubligi aniqlangan¹⁹.

Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya" asarida "Ular daryo ikki sohili hududlari bo'ylab 300 dan ziyod qishloq va shaharlar barpo qilganlar, ularning xarobalari hozirgi kungacha saqlanib qolmoqda", deb qayd qilinib, olimning ajdodlarimizning

¹⁶ Pampelly R. Explorations in Turkestan. Edited By R. Pumpelly. Volume I-II. – Washington. 1908.

¹⁷ Pampelly R. Explorations Archeological and phisico-geographical reconnaissance in Turkestan, Carnegie Institute of Washington. Publication, – № 26, 1905. – P. 7-9; Pampelly R. Exploration in Turkestan Edited By R. Pumpelly. Volume I-II. – Washington, 1907.

¹⁸ Букинич Д.Д. История первобытного орошаемого земледелия в Закаспийской области в связи с вопросам о происхождении земледелия скодоводства. "Хлопковое дело" 1926. – №3. – С. 92-135; O'sha muallif. Новое об Анау и Намазгохдепе. – Ашгабад: "Туркменоведение", 1929. – №5. – С. 32-36.

¹⁹ Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме. – М.: Наука, 1940. – № 6. – С. 169. Рис. 1.

shaharsozlik madaniyatini yuksak darajada rivojlantirganliklariga e'tibor bergani diqqatga sazovor²⁰.

Ikkinchi tarixiy davr 1939-yilda Xorazm ekspeditsiyasi tomonidan To'rtko'l tumani hududidagi Yonboshqal'a va Qo'yqirilgan qal'ada qisman qazishma ishlarining olib borilishi bilan boshlangan²¹. Yuqorida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar ittifoq ilmiy markazlari tomonidan S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasining tashkil qilinishiga olib keldi, bu esa Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida o'troq ziroatkor aholining hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan tarixiy obidalarni keng qamrovli tarzda arxeologik jihatdan o'rganishga zamin yaratdi.

Shu tariqa, ikkinchi tarixiy davrning o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'ldiki, Surxondaryoda Ayritom, Xorazm vohasida Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a yodgorligidan antik davr jamiyatida kechgan tarixiy jarayonlarni yoritishga xizmat qiladigan ashyolarning olinganligi qishloq jamoalari manbashunosligi fanining vujudga kelishiga zamin bo'lgan.

Uchinchi tarixiy davrdan boshlab O'rta Osiyo respublikalari hududlaridagi aholi turarjoylarida turli ekspeditsiya va arxeologik guruhlar tomonidan keng miqyosda arxeologik izlanishlar (1945-yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi, 1945-yillarda M.Y.Masson rahbarligidagi Janubiy Turkmaniston arxeologik – kompleks ekspeditsiyasi, 1947-1948-yillarda A.N.Bernshtam boshchiligidagi Pomir-Oloy ekspeditsiyasi, 1950-yilda Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi Mohondaryo arxeologik guruhi Quyi Zarafshon vodiysida, 1950-yildan Farg'ona ekspeditsiyasi, 1954-1955-yillarda G.F.Debets tomonidan tashkil etilgan Qirg'iziston arxeologik va etnografik ekspeditsiyasi, 1959-1964-yillarda Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi Qashqadaryoning qadimiy shahar xarobasi Yerqo'rg'onda, 1970-yillardan boshlab Surxondaryo viloyatida G.A.Pugachenkova rahbarligidagi Hamza nomidagi san'atshunoslik instituti arxeologik ekspeditsiyasi, 1972-yilda V.M.Masson rahbarligidagi Baqtriya ekspeditsiyasi, 1973-yildan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Qashqadaryo ekspeditsiyasi Yerqo'rg'on yodgorligida²² hamda R.H.Sulaymonov rahbarligidagi Qashqadaryo arxeologik guruhi va h.k.) jadal sur'atda olib borilgan.

To'rtinchi davr Mustaqillik yillarida Xorazm vohasidagi tarixiy yodgorliklarda arxeologik izlanishlar olib borish maqsadida xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ekspeditsiyalar tashkil qilindi. Qoraqalpog'istonlik tadqiqotchilar Avstraliyaning Sidney universiteti xodimlari bilan hamkorlikda Toshxirmon vohasidagi Aqshaxonqal'ada va Toshxirmon yodgorliklarida qazishma ishlarini olib borib, noyob ashyolarni olishgan²³.

²⁰ Беруни. Определение границ мест для уточнения расстояния между населенными пунктами (Геодезия). – Ташкент: Фан, 1966. Т. 3. – С. 95.

²¹ Толстов С.П. Ко'ғ. asar. – С. 88-93.

²² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.T.8. – T.: O'zME. nashriyoti, 2006.

²³ Ягодин В.Н., Беттс Г. Ташкырманский древний оазис. Казакли-Яткан, Ташкирмантепе // Тезисы докладов Международного симпозиума “Приаралья в перекрестке культур” и второго полевого семинара “Археология древнего Ташкырманского оазиса”. – Нукус-Бустан-Беруни, 2007. – С. 109-110.

Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeologiya guruhi xodimlari tomonidan Janubiy Xorazm hududidagi Toshqal'a-2 yodgorligida arxeologik izlanishlarning olib borilishi natijasida so'nggi antik va ilk o'rta asr tarixini yoritadigan manbalar olingan²⁴. Yangiariq tumanidagi Olmaotishgan-2 yodgorligida arxeologik qazish ishlari olib borilishi natijasida antik va ilk o'rta asrlarda kechgan jarayonlarni yoritadigan manbalarning olinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi²⁵.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, R.H.Sulaymonov tomonidan Qashqadaryo viloyatida joylashgan qadimiy yodgorlik – Yerqo'rg'on shahristonida qazishma ishlari olib borilib, qal'a devorlari qismlari qazib o'rganilib, istehkomlarning qurilishi va o'zgarib borish jarayoni aniqlandi. Istehkomning devori mil. avv. I ming yillik o'rtalarida silliq bo'lgan bo'lsa, mil. avv. II asrga kelib devor to'g'riburchakli burjlar bilan mustahkamlangan²⁶.

2003-2004-yillarda Farg'ona vodiysida aholi turarjoylarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Axsikatning bronza va ilk temir davrlaridagi shaharlar ichida alohida ajralib turuvchi manzilgohligi aniqlandi²⁷.

Birinchi bobning *“O'rta Osiyo qishloq jamoalari tarixshunosligi”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida O'rta Osiyo qishloqlari tarixshunosligi tahlil qilingan.

O'rta Osiyo mintaqasi Janubiy Turkmanistonning Kopetdog' etaklarida mil. avv. VI-V mingyilliklarda Qoraqum sahrosi sharoitida joylashgan Joytun manzilgohi ovchilarining hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan yodgorliklardan biri Anov tevarak-atrofini qamrab olgan dastlabki mikrovoha markazi shakllangan²⁸.

XX asrning 30-yillarigacha O'rta Osiyo mintaqasida neolit, eneolit davriga oid aholi turarjoylarini o'rganish maqsadida ilmiy markazlarda maqsadli ravishda ishlab chiqilgan rejalar asosida o'rganish ishlari olib borilmagan.

XX asrning 40-yillari o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyo mintaqasida arxeologik ekspeditsiyalar (Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (1945-yil), shu yili Janubiy Turkmaniston arxeologik-kompleks ekspeditsiyasi, Pomir-Farg'ona ekspeditsiyalari) faoliyat olib borgan. O'rta Osiyo mintaqasida faoliyatini boshlagan arxeologik ekspeditsiyalarning olib borgan dala amaliyoti davrida ro'yxatga olingan turarjoylarida doimiy ravishda arxeologik izlanishlar olib borish imkoniyati vujudga keldi, ularda qazishma ishlari natijasida olingan moddiy ashyolar, ularning xronologiyasi, vujudga kelishi va rivojlanish tarixiga oydinlik kiritish ibtidoiy jamoa tuzumi davrida mavjud bo'lgan muammolarning ilmiy yechimini topishiga sharoit yaratdi²⁹.

²⁴ Баратов С.Р., Матрасулов Ш. Археологические работы в Южном Хорезме // Археологические исследования в Узбекистане 2002 г. – Самарканд, 2003.

²⁵ Матрасулов Ш., Собиров К. Олмаотишган ёдгорлигида археологик тадқиқотлар // Археологические исследования в Узбекистане в 2001 г. – Самарканд, 2002. – С. 104-107.

²⁶ Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 5.

²⁷ Ходжаниязов Ф. Ко'р. asar. – Б. 5.

²⁸ Pampelly R. Exploration in Turkestan. Volume I. – Washington, 1908. - P. 204; Shmid H. Archeological Exesvations in Anov and OLD Merv // R. Pumpelly. Exploration in Turkestan. Volume I. – Washington, 1908.

²⁹ Воронец М.Е., Гулямов Я.Г. Первобытнообщинный строй // История Узбекской ССР. Кн. I. – Ташкент: “Изд. АН Уз ССР”, 1955. Том. 1. – С. 16-25.; Массон В.М. Первобытнообщинный строй на территории Туркмении // Тр. ЮТАКЭ. – Ашгабад, 1956. Т. 7. – С. 233-237.; Окладников А.П. Джебел-памятник древней культуры

XX asrning 50-yillarida Quyi Amudaryo o'ng va so'l hududlarida Qamishli I, II, Sulton Sanjar, Qarriqizil, Qo'shbuloq, Shimoli-g'arbiy Uzboy hududlarida Tog'aloq, Bola-eshim yodgorliklarida qazishma ishlari natijasida olingan moddiy ashyolar eneolit davrida doimiy harakatda bo'lgan massivlar geografik holatini namoyon qilgan³⁰.

Tadqiqotchilarning nashrlarida qayd qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro-Qorako'l dehqonchilik vohasi geografik holatini tasvir qilgan Zarafshon daryosi irmoqlari (Daryosoy va Moxandaryo) suv sathi ko'tarilishi natijasida Qizilqum oralig'idagi botiqlar suv havzalari Kichik va Katta Tuz konlar sohili etagiga ulangan tekisligida Darbozaqir I, II manzilgohi madaniy qatlamidan olingan moddiy ashyolar neolit davri urug' jamoalarining xo'jalik an'analari eneolit davrida davom etib, etnik munosabatlar sahro sharoitida rivojlanganligidan dalolat beradi³¹.

Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha, Farg'ona vodiysi Seleng'ur, So'x va Chashma manzilgohlarida kasb-korlarini olib borgan ovchilar tevarak-atroflaridagi tabiiy-iqtisodiy hududlarni o'zlashtirib, Jarqo'ton, Botirbuloq va Tomchisuv manzilgohlarida yashab, etnik munosabatlar geografiyasini birmuncha kengaytirganlar³².

Nurota tog' tizimida Uchtut, Vaush, Ijond manzilgohlari ovchilarining bir guruh vakillari aholi soni oshganligi munosabati bilan O'rta Zarafshon hududiga ko'chish siyosatini olib borib, yangi hududlarni o'zlashtirib, uning tabiiy manbalarini o'z manfaatlariga xizmat qildirish uchun Omonqo'ton, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Go'rdara manzilgohlariga asos solishi natijasida etnik munosabatlarni olib borish geografik kengligi hosil bo'lgan³³.

Ustyurt janubi-sharqiy tomonida kundalik faoliyatlarini olib borgan Churuk-2 ovchilarining bir guruh vakillari so'nggi paleolit davriga kelganda Sulton Uvays tog'i etagiga ulangan so'l hududga kelib, uni o'z manfaatlariga xizmat qildirish uchun Burli-3 makoniga asos solib, yangi geografik hudud xususiyatidan kelib chiqib, kasb-korini belgilab olib, etnik jarayonlar geografiyasini kengaytirishgan³⁴.

Zarafshon vodiysi o'rta qismida (Samarqand shahri atroflari) hamda Qizilqumda odamzod tomonidan qoldirilgan manzilgohlarda olib borilgan qazish ishlari natijasida so'nggi tosh davrida kechgan jarayonlarga mansub moddiy ashyolar olinganligi etnik munosabatlarning geografik kenglikda olib borilganligidan dalolat beradi³⁵.

Geologik va geografik adabiyotlarda qayd qilinishicha, mil. avv. V mingyillik oxiri - IV mingyilliklar o'rtalarida Amudaryo faoliyati natijasida Sariqamishbo'yi, Oqchadaryo havzalari vujudga kelgan bo'lsa, mil. avv. V asr boshlarida Sirdaryo

прикаспийских племен Туркмении // Тр. ЮТАКЭ. – Ашгабад, 1956. Т. 7. – С. 11-219.; Грязнов М.П., Окладников А.П. Первообытнообщинный строй // Истории Киргизии. – Фрунзе, 1963. Том-I. – 190 с.

³⁰ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Наука, 1962. – С. 65-69.

³¹ Гулямов Я.Г., Исломов У., Аскаров А. Ко'г. asar. – 266 с.

³² Эгамбердиева Н.А. Археология (ўқув қўлланма). – Тошкент, 2011. – Б. 24-25.

³³ Эгамбердиева Н.А. Ко'г. asar. – Б. 28-29.

³⁴ Виноградов А.В., Бижанов Е.Б. Первые палеолитические находки с Юго-Восточного Устюрта //АО 1977. – М.: Наука, 1978. – С. 522; Виноградова Е.А. Ко'г. asar. – С. 74-77.

³⁵ Мамедов Э.Д., Виноградов А.В. Разведки палеолита в Юго-Западного Кызылкумах //АО 1981. – М.: Наука, 1983. – С. 461; Тошкенбоев Н. Самарканд вилоятининг юқори палеолит ёдгорликларини ўрганиш муаммолари // Ўзбекистон моддий маданияти. – Самарқанд, 1999. – № 30. – Б. 15-18.

faoliyatining Orolbo‘yi havzasining shakllanishida ishtirok etishi, Orol dengizi doirasi shakllanishidagi ahamiyati Amudaryodan kam emas. Ikki buyuk azim daryolar dinamikasi natijasida Sariqamishbo‘yi, Oqchadaryo va Orolbo‘yi havzalari shakllangan bo‘lib, ularning geografik holati, ekologik jihatdan bir-biridan farqlanish xususiyatlari bilan ajralib turishi arxeologiya-geomorfologiya xaritasida o‘z aksini topgan³⁶.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘rta Osiyoning geografik holati va uning o‘zlashtirilish bosqichlari”** deb nomlangan. Uning *“O‘rta Osiyo mintaqasining paleogeografik xususiyati va etnik jarayonlarning rivojlanish bosqichlari”* nomli birinchi paragrafida O‘rta Osiyo hududining topografik joylashishi, paleogeografiyasi, paleoekologiyasi va paleodemografik jarayonlar ochib berilgan.

O‘rta Osiyo zamini tarixiy-geografik hududlarining topografik joylashishi o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanish holatlariga ega. Shu ma’noda, tarixiy-iqtisodiy hududlarning paleogeografiyasi va paleoekologiyasi ta’sirida paleodemografik jarayonlarga aniqlik kiritish tarix fanida ilmiy yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri sifatida ko‘zga tashlanadi. O‘rta Osiyoning hududiy tuzilishi tog‘lar (sharqiy, janubi-sharqiy hududlari) va tekisliklar (g‘arbiy, shimoliy va janubiy qismlari)dan iborat. O‘zbekistonning geografik joylashish xususiyatini Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon, Toshkent, Farg‘ona va Surxon vohalari namoyon qilgan. Jahonning barcha hududlari hajmi katta va kichik daryolarining (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Norin) loyqa qatlamlaridagi mineral moddalarini yotqizishi natijasida vujudga kelgan tekisliklar minglab yillar mobaynida odamzodga xizmat qilgan.

Tadqiqotchilar asarlarida O‘rta Osiyo hududining nomlanishida turli atamalar, ya’ni “Markaziy Osiyo”, “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi”, “Turkiston”, “Turkiston umumiy uyumiz” etnotoponimikalari ishlatilgan va ishlatilmoqda. Tadqiqot ishimizning mazmun va mohiyatini yoritishda O‘rta Osiyo atamasini qo‘llashni lozim topdik. Mintaqaning geografik o‘rni manzarasini g‘arbiy tomonda Qoraqum, sharqda Qizilqum qamrab olib, u Markaziy Qozog‘iston tog‘larigacha borib tutashgan. Orol dengizi janubiy sohili etagidan Amudaryo janubi sohili etagiga ulanib ketgan hudud uzunligi 1000 km. dan ortiq. O‘rta Osiyo hududini egallagan umumiy maydonining hajmi 3 mln. 450 ming km² dan iborat bo‘lgan³⁷.

O‘rta Osiyo mintaqasi tabiiy-geografik hududlarining tabiiy sharoiti, tabiiy-iqtisodiy manbalari, ichki daryolari, suv havzalari, buloqlari atroflari va tog‘ tizmalari etaklari odamzodning kelib joylashib olishiga imkon beradigan strategik ahamiyatining geografiyasi keng³⁸.

³⁶ Андрианов Б.В. Археологическая карта Хорезма // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981. – С. 66. Рис. 3.; Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударьи (Культура и искусство древнего Хорезма). – М.: Наука, 1981. – С. 73-74, рис. 4.; Quyi Amudaryo quyi havzasi sxematik xaritasi.

³⁷ Баратов П., Маматкулов М., Рафиқов А. Ко‘р. asar. – Б. 7

³⁸ Архангельский А.Д. Геологические исследования в Низовьях Амударьи // Труды Главного геологоразведочного управления ВСНХ СССР. Вып. 12. 1931. – 150 с.; Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекской ССР // ТР. ТашГУ, Кн. 27. – Ташкент, 1964. Вып. 231. – 247 с.; Берг Л.С. Аральское море // Изв. Туркес. отд. руск. геогр общ-ва. Т. 5. Вып. 9. 1908. – С. 15-35; Герасимов И.Г., Марков К.К. Ледниковый период на территории СССР // ТР. Института географии АН СССР. – М.: – Л., 1939.

O'rta Osiyo mintaqasi xususiyatini belgilagan geografik omillar, tabiiy-iqtisodiy manbalar, ichki daryolar, suv havzalari, buloqlar va tog'lar atroflari odamzodning kelib joylashib, kasb-korlarini belgilab olishiga imkon bergan. O'rta Osiyo mintaqasi geografik joylashishining, odamzod manfaatlariga xizmat qiladigan tarixiy o'rni xususiyatini nazarga olib, ularni ijobiy va noijobiy xususiyatlarga ajratish maqsadga muvofiq.

Ijobiy tomonlari:

geografik o'rinning tabiiy-iqtisodiy manbalar zaxirasiga seroblighi;

tabiiy-iqtisodiy hududlarning geologik jihatdan yaxlitligi, odamzodning joylashib, tevarak-atroflardagi tabiiy resurslardan foydalanib, o'z kasb-korlarini belgilab olish imkoniyati mavjudligi;

shimoliy, shimoli-g'arbiy hududlarda o'rtnashgan aholining migratsion tadbirlarni olib borish, etnik munosabatlar geografiyasini kengaytirish imkoniyati;

Sharq dunyosi aholisining madaniy-xo'jalik markazlarida erishgan yutuqlarining Yevropa hududidagi aholini tanishtirish vazifasini bajarishi;

Xalqaro karvon yo'li tizimida Sharq va G'arbni bog'lashda tayanch vazifani bajarishi.

Noijobiy tomoni:

shimoli-g'arbiy osmono'par tog'lardan xoli bo'lganligi bois sovuq iqlimning bemalol kirib kelishi;

dengiz va okeanlarga chiqish imkoniyatining yo'qligi (dunyoning 34 davlatidan biri);

Qoraqumning ko'chma to'lqinsimon qum uyumlarining sernam va serunum tekisliklarni qoplashi;

janubiy tomondan keladigan issiq havo massalarining kirib kelishiga osmono'par tog'larning to'siq bo'lishi.

Ikkinchi bobning *"O'rta Osiyo mintaqasida etnogenetik jarayonlar ta'sirida madaniy-xo'jalik mikrovoahalarining vujudga kelishi va ularning rivojlanish bosqichlari."* sarlavhali ikkinchi paragrafida mavzuga oid madaniy-xo'jalik mikrovoahalarining shakllanishi va rivojlanishi yoritib berilgan.

Mil. avv. IV mingyillik o'rtalari III mingyillik ikkinchi yarmida (mis-tosh davri) jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlari rivojlanishida neolit davri aholisining xo'jalik sohasidagi erishgan natijalarining ahamiyati saqlanib qolgan, uning ta'sirida jamiyatning notekis rivojlanishi davom etgan. Darhaqiqat, Kopetdog'oldi etaklari, Murg'ob daryosi atroflari hamda Zarafshon vodiysining shimoli-g'arbida o'rtnashgan aholi mis ashyosini eritib, undan hosil bo'lgan quymalardan xilma-xil mehnat qurollarini ishlab chiqib, kundalik kasb-korlarida keng tarzda qo'llaganliklari bois jamiyatning rivojlanishi bir qadam oldinga tashlangan bo'lsa, urbanizatsion jarayonlardan xoli bo'lgan madaniy-xo'jalik hududlarida (Ustyurt, Janubiy Orolbo'yi, Zarafshon, Toshkent, Farg'ona) o'rtnashgan aholi tomonidan tosh qurollari modernizatsiya qilinib, tabiiy manbalardan keng foydalanilganligi, xo'jalikning barcha sohalarini rivojlantirish uchun texnikaviy bilim

o'z darajasida bo'lmaganligi uchun jamiyat tadrijiy rivojlantirilgan. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha, Xorazm vohasi, unga hududiy jihatdan ulanib ketgan Sariqamishbo'yi havzasi Davdon irmog'i janubi-g'arbiy va Uzboy hududlarida neolit davri urug' jamoalarining vorislari xo'jalik an'alarini davom ettirganlar, negaki mazkur hududga Kopetdog' etaklarini qamrab olgan urbanistik jarayonlarning iliq shabadalari yetib kelmagan edi³⁹.

Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarga ko'ra, eneolit davri birinchi yarmida xo'jalikning notekis rivojlanishining moddiy va ma'naviy ashyolarda aks etishini inobatga olib, O'rta Osiyo mintaqasini ikki madaniy-xo'jalik mikrovohalarga ajratish mumkin:

Birinchi hudud: Kopetdog'oldi etaklari, Murg'ob va Tajan daryosi atroflarini qamrab olgan mikrovohalar. Chunonchi, Kopetdog'oldi etaklarida Anov madaniy xo'jalik markazi-Anov, Kopetdog'oldi mikrovohasi markazi-Namozgohtepa, Tajan daryosi havzasi madaniy-xo'jalik mikrovoha markazi-Geuksyur I.

Ikkinchi hudud: Ustyurt platosi, Quyi Amudaryo, Zarafshon daryosi quyi havzasi, Qizilqumning ichki hududlari, yog'och ustunli yarim yerto'la mavsumiy kulbalar, tez-tez o'zgarib turadigan massivlarda istiqomat qilgan aholining turmush tarzi, xonaki chorvachilik, ovchilik va termachilik, qo'lda tayyorlangan kulolchilik ashyolari bilan farqlanish xususiyatlariga ega.

O'rta Osiyoning issiq mintaqasi bo'lgan Janubiy Turkmanistonning Kopetdog'oldi Murg'ob daryosi havzasi atroflarida o'troq hayot, "Qayr" ziroatchiligi bilimni olib borgan neolit davri urug' jamoalari xo'jalik sohasida erishgan yutuqlari tevarak-atrofdagi hududlarga tarqalish obyekti bo'lgan⁴⁰.

Mil. avv. VI-V mingyilliklarda Kopetdog'oldi etagi hududi atroflari binokorlik bilimni o'zlashtirib olgan urug' jamoalarining olib borgan o'zlashtirilish ishlari natijasida Joytun manzilgohi ilk mikrovoha vazifasini bajargan (1 ga.)⁴¹.

Eneolit davri birinchi yarmiga kelib, Geoksyur vohasidagi aholi suv tanqisligi munosabati bilan o'zlari moslashgan geografik hududni abadiy tark etib, ko'chish siyosatini uch yo'nalishda olib borganlar:

Birinchi yo'nalish – aholining bir qismi Kopetdog' etaklariga qaytadan kelib joylashib, Chingizdepe, Bami, Beurme, Baharden, Karantkiy-takay, Dashtlidje-depe, Ovodon-depe, Ekin-depe, Niso, Aq-depe, Anov kabi turarjoylarni barpo qilib, yangi-yangi madaniy-xo'jalik mikrovohalarini shakllantirganlar.

Ikkinchi yo'nalish – Tajan daryosi o'rta qismi Seraxs vodiysida mikrovoha shakllangan (Hopuz-depe)⁴².

³⁹ Толстов С.П. Ко'р. asar. – С. 42; Бижанов Е.Б. Ко'р. asar. – С. 74-75; Виноградов А.В. Энеолитические памятники Хорезма // СЭ. – М.: Наука, 1968. Вып. 6. – С. 172-177; Итина М. А. Памятники эпохи неолита и бронзы // Древности Южного Хорезма // Тр. ХАЭЭ. – М.: Наука, 1991. Т. 16. – С. 66-74; О'sha muallif. Работы Узбайского отряда в 1957 г. // КСИЭ. – М.: Наука, 1957. Вып. 26. – С. 105-113.

⁴⁰ Массон В.М. Ко'р. asar. – С. 37-109; Бердиев А.К. Ко'р. asar. – С. 9-17; О'sha muallif. Некоторые итоги изучения древнеземледельческих поселений // Каракумские древности. – Ашхабад: Ёлым, 1970. Вып. 3. – С. 14-32.

⁴¹ Массон В.М. Ко'р. asar. – С. 37-109.

⁴² Хлопин И.Н. Ко'р. asar. – С. 9. Рис. 1.

Uchinchi yoʻnalish – Zarafshon vodiysining shimoli-gʻarbiy hududi Sarazm qishlogʻi hududi oʻzlashtiriladi, loy-binokorlik bilimi asosida turarjoy – Sarazm mikrovoha madaniy xoʻjaligi shakllangan⁴³.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Oʻrta Osiyo qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlari tarixi”** deb nomlangan. Uning *“Oʻrta Osiyo qishloqlarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarning rivojlanish bosqichlari”* sarlavhali birinchi paragrafida Oʻrta Osiyo qishloqlarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarning eneolit, bronza va temir davrlarida rivojlanib borishi yoritilgan.

Mil. avv. VI-V mingyilliklarda Kopetdogʻoldi etaklarida Joytun, Chopontepa va Murgʻob daryosi havzasi sohili hududida Chagʻillidepa urugʻ jamoalari Qoraqum Sochma qum uyumlari oraligʻida “qoq” yerda bugʻdoy va arpa urugʻlarini ekib (yuqorida qayd qilingan yerlarda) (40 ta yovvoyi oʻsimliklar mavjud boʻlgan), kundalik taomnomasida xamir mahsulotlari geografiasini kengaytirishgan. Bugʻdoy va arpa yetishtirilishi natijasida vujudga kelgan mahsulotlar bilan uy hayvonlarini boqish bilan mashgʻul boʻlganlar⁴⁴. Shu tariqa, Kopetdogʻoldi etaklari va Murgʻob daryosi geografik hududi manzarasini qishloq xoʻjaligi namoyon qilgan.

I.N.Xlopin tadqiqotlari natijalariga koʻra, aholi Tajan daryosi havzasi atrofini oʻzlashtirib, ixtiro qilgan binokorlik bilimini 9 ta manzilgohda qoʻllaganlar⁴⁵. Geoksyurliklar Tajan daryosi havzasi tarmoqlaridan sugʻorish tarmoqlarini chiqarib, sugʻorma dehqonchilikning dala tizimini kashf qilganlar. G.N.Lisitsinaning qayd qilishicha, Geoksyur vohasida Joytun aholisi 50-75 gektarda arpa-bugʻdoy urugʻlarini sepib, qishloq xoʻjaligi yoʻnalishini yoʻlga qoʻygan⁴⁶.

A.Isaqov maʼlumotiga koʻra, eneolit davri ikkinchi yarmi birinchi choragida Zarafshon daryosi yuqori oqimi hududiga joylashgan aholining etnik jarayonni olib borganliklari haqida Sarazm manzilgohidan olingan ashyolar dalolat beradi⁴⁷. Lekin A.Isaqov Sarazm qishlogʻida kundalik faoliyatlarini olib borgan aholining qaysi hududdan kelganligi masalasiga eʼtibor bermagan, ammo A.Asqarovning mazkur hududni oʻzlashtirgan ziroatkorlar geoksyurliklar boʻlib, ular ikki maqsadni amalga oshirish uchun kelganlar, yaʼni sernam va serunum hududlar suv taʼminotidan (togʻdan oshib tushgan suvlar) foydalanib, sugʻorma dehqonchilik anʼanalarini yanada rivojlantirish hamda togʻ-kon ashyosidan mehnat qurollarini ishlab chiqib,

